
“Biz bir bo’lsak – yagona xalqmiz, birlashsak – Vatanmiz!”

Rishton tumanida “Biz bir bo’lsak – yagona xalqmiz, birlashsak – Vatanmiz!” shiori ostidagi “Ma’naviyat festivali” ko’tarinki ruhda davom etmoqda.

Festival doirasida mahallalarda o’tkazilayotgan loyihalar aholi, ayniqsa yoshlar qalbida milliy g’ururni shakllantirish, vatanparvarlik tuyg’usini yanada kuchaytirish, milliy urf-odatlarimiz, an’ana va qadriyatlarimizga bo’lgan cheksiz hurmatni yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Aholi va yoshlarni madaniy dam olishini tashkillash hamda ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish maqsadida kechgi oqshomda Navbahor mahalla fuqarolar yig’ini hududida bo’lib o’tgan musiqiy-madaniy tadbir ham uning ishtirokchilariga yuqori kayfiyat ulashdi.

Rishton tumani hokimligi Axborot xizmati

2024-08-02 09:05:58